

Xodjayarova Sevara Abdimurat qizi
Termiz davlat universiteti
maktabgacha ta'lim metodikasi
kafedrası o'qituvchisi
rustamxurramov@mail.ru

Yusupov Faxriddin Islomiddinovich
Termiz davlat pedagogika instituti
amaliy psixologiya kafedrası o'qituvchisi

BO'LAJAK PEDAGOG TARBIYACHILARNI KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot bo'lajak pedagog tarbiyachilarning kreativlik sifatlarini rivojlantirish muhimligini o'rganadi. Kreativ yondashuvlar ta'lim jarayonida innovatsiyalarni joriy etish va o'quvchilarni faol fikrlashga undashda katta ahamiyatga ega. Mazkur ishda pedagoglarni kreativ fikrlashga rag'batlantirish usullari, ta'limda yangi metodlarni qo'llash yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, kreativlikni oshirishga xizmat qiluvchi mashg'ulot va treninglar samaradorligi baholanadi.

Kalit so'zlar: Bo'lajak pedagog, tarbiyachi, kreativlik, rivojlantirish, ta'lim, metodika, innovatsiya, trening.

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ КАЧЕСТВ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация. Данное исследование рассматривает важность развития творческих качеств у будущих педагогов-воспитателей. Креативные подходы имеют большое значение для внедрения инноваций в образовательный процесс и стимулирования активного мышления учащихся. В работе анализируются методы мотивации педагогов к творческому мышлению и применения новых методик обучения. Также оценивается эффективность занятий и тренингов, направленных на развитие креативности.

Ключевые слова: Будущий педагог, воспитатель, креативность, развитие, образование, методика, инновация, тренинг.

DEVELOPMENT OF CREATIVE QUALITIES OF FUTURE EDUCATORS

Abstract. This study explores the importance of developing creativity skills in future pedagogical educators. Creative approaches play a vital role in introducing innovations in education and encouraging active thinking among students. The work analyzes methods to motivate educators towards creative thinking and ways to apply new teaching techniques. Additionally, the effectiveness of exercises and training sessions aimed at enhancing creativity is evaluated.

Key words: Future educator, creativity, development, teaching, methods, innovation, training, skills.


Kirish. Kreativlik sifatlar va axloqiy madaniyat jarayonida talabalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida talaba tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobiy) ta'siri talabani ularga munosabatiga bog'liqligini ko'rsatadi. Darslarda talaba faoliyatini uyushtirishgina emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan turli kechinmalarni qanday anglashi, baholashi, his qilishi, ulardan o'zi uchun nimalarni olayotganligini bilishi zarur. Zero, kreativ sifatlar va madaniyat ijtimoiy munosabatlarning murakkablashib borishi asosida kechadi.

Tahlil va natijalar. Kreativlik sifatlar, axloqiy madaniyatni rivojlantirish jarayonida talabani ongigina emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan ahloqiy, kreativlik talablariga muvofiq keladigan hulkay malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun talabani ongi, hissiyoti va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi va tarbiyachi rahbarlik qiladi. U talabalar faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi. Ijtimoiy jarayonda faol ishtirok etish orqali talabalarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi ortib boradi. Faoliyat talabalar jamoasi manfaati va istagi asosida uyushtirilsa, bu jarayonda talabani tengdoshlari va o'zini o'zi anglash jarayoni yuzaga keladi. Talaba o'z hulkay, xatti-harakati uchun jamoa oldida javobgarlikni sezishga erishgach, ijrochi emas, balki umumiy ishning faol qatnashchisi bo'lib qoladi. Kreativ sifatleri va axloqiy madaniyatni samarali yo'lga qo'yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchi, kreativ sifatleri rivojlantirish jarayonining manbaini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir. Bu

ta'lim va tarbiya jarayonidagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklardan iborat. Kreativlik sifatleri hamda axloqiy madaniyatda talabalarning tarbiyalanganlik darajasini ham hisobga olish kerak bo'ladi. bu jihat unutilsa, muayyan qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Faoliyat jarayonida hosil bo'lgan malaka va odatlar axloq me'yorlariga rioya qilishni engillashtiradi.

Demak, fan o'qituvchisi hamda tarbiyachi talaba talaba shaxsining tez rivojlanadigan davri – talabalik yillarida uning ongiga turli faoliyat (o'qish, mehnat, ijtimoiy ishlar, o'yin, sport, badiiy havaskorlik) yordami bilan maxsus ta'sir etish muhimdir. Aks holda hulq me'yorlari, ahloq talablarini yaxshi tushunmay qolishi natijasida shaxs ijtimoiy munosabatlarda beqaror, tasodifiy ta'sirga beriluvchan bo'lib qolishi mumkin [67].

Kreativ sifatlar va axloqiy tarbiya yaxlit jarayonda amalga oshirilib, uning tarkibiy qismlari ayni bir vaqtda, faoliyatning biror turi asosida namoyon bo'ladi.



Umumiy pedagogika jarayonida kreativlik va axloqiy tarbiya muhim o'rin tutadi. SHaxsni shakllantirish, boshqarish, nazorat xarakteriga ega bo'lib, bu borada belgilangan vazifalar tasodifiy xarakterlar orqali emas, balki oldinda belgilangan va puxta o'ylangan rejalar asosida hal etib boriladi. Kreativ axloqiy tarbiya jarayonida uning maqsadi, shakl va metodlari shaxsning o'zini-o'zi tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim o'rin tutadi. Kreativ sifatlar va axloqiy tarbiya mazmuni ijtimoiy tuzum buyurtmasi asosida belgilanib, uning amalga oshishi uchun ma'lum shart-sharoitlarning mavjudligi talab etiladi. Ushbu g'oyalar yaxlit tarzda quyidagicha aks etadi: Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. kreativ sifatlarini va axloqiy tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida tashkil etilayotgan ichki tartib-qoidalar va odob-axloq kodeksining asosiy maqsadi komil shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishdan iborat. Kreativlik sifatlar va axloqiy tarbiyaning natijasi yuksak ma'naviy va kreativlik talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalashdir. Bu jarayon ikki tomonlama bo'lib, uyushtirish va rahbarlik, shuningdek, talaba shaxsining o'zi tomonidan faollik ko'rsatishini taqozo etadi. Bu jarayonda tarbiyachi etakchi rol o'ynaydi. Chunki u ijtimoiy tarbiyaning umumiy maqsadlari mohiyatini tushunadi, maqsad yo'lida amalga oshiriladigan vazifalar tizimidan yaxshi xabardor, tarbiya shakl, metod va vositalarini asosli, ilmiy tarzda tanlab oladi va tarbiya jarayoniga tatbiq etadi. Axloqiy tarbiya jarayonining mohiyatini tarbiyaga har tomonlama integrativ yondashish bilan muvaffaqiyatli tarzda, ilmiy tahlil qilish mumkin. SHaxs kreativ, axloqiy tarbiyasining natijasi sifatida shakllanadigan ijtimoiy mavjudotdir. SHaxsning ko'pdan-ko'p xislatlari bir-biridan ajratilgan emas, balki o'zaro mustahkam bog'langan. Tarbiya integrativ yondashuv asosida kreativ sifatlar jarayonida talabaning shaxsiyati ayrim-ayrim emas, balki yaxlit ravishda rivojlanadi Talaba o'sib va rivojlanib borgan sari tarbiya vazifalari murakkablashib, chuqurlashib, tabaqalashib boradi. Har tomonlama etuk shaxsni kreativ salohiyatli sifatlarini rivojlantirish uchun unga izchil aqliy, g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, mehnat, estetik, jismoniy, ekologik, iqtisodiy hamda tarbiya berish, talabalarning ongi, xulq-atvori va faoliyatining birligi, shuningdek, tarbiya jarayonini tashkil etishning yakka, guruhli va ommaviy shakllarini qo'shib olib borilishini ta'minlaydigan pedagogik tizimlarni vujudga keltirish va bu tizim g'oyalariga amal qilishni talab etadi.

Xulosa. SHaxsni kreativ sifatleri va axloqiy madaniyatini rivojlantirish jarayoni shaxsning ijtimoiy fazilatlarini shakllantirish, uning atrof-tevarak, jamiyat, odamlar hamda o'ziga nisbatan munosabatlari doirasini vujudga keltirish va uni kengaytirishga qaratilgan. SHaxs ishtirok etadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi qanchalik keng, xilma-xil va chuqur bo'lsa, uning ma'naviy dunyosi shunchalik boy bo'ladi. Kreativ salohiyat sifatlarini rivojlantirish jarayonining natijalari odatda bir xil xarakterda bo'lmaydi. Bu narsa talabalarning psixologik (individual, tipologik), fiziologik va jismoniy xususiyatlari, ularning hayotiy va

ma'naviy tajribasi, shaxsiy pozitsiyasiga bog'liq. Kreativ salohiyati sifatlarini rivojlantirish jarayoni, odatda, o'zini-o'zi tarbiyalash, o'zini-o'zi qayta tarbiyalash, talabani atrof-muhitdagi u yoki bu hodisalar bilan salbiy aloqasi natijasida vujudga keladigan munosabatlar va ularning xususiyatlarini bartaraf etish bilan olib boriladi. O'zini o'zi tarbiyalash shaxsni o'zida ijtimoiy kadr ga ega bo'lgan fazilatlarini hosil qilish va takomillashtirishga hamda salbiy xislatlarni bartaraf etishga qaratilgan ichki sifatida ta'riflanadi. O'zini-o'zi qayta tarbiyalash shaxsning o'zidagi salbiy odatlar, xarakteridagi zararli sifatlarini yo'qotish, ularni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyat jarayonidir. Talaba hulqidagi "og'ish"lar oiladagi nosog'lom muhit, ota-onaning tarbiyada yo'l qo'ygan xatolari, o'qituvchi va tarbiyachi faoliyatidagi kamchiliklar asosida vujudga keladi. Qayta tarbiyalash jarayonida salbiy hulqni hosil qilgan sabab, sharoit o'zgartiriladi, qayta tarbiyalashda institut va shaxsning ta'sirini oila, shu jumladan, ota-ona ham ma'qullashi lozim.

Demak, qayta tarbiyalash talabani o'zigagina emas, balki uning ota-onasiga ham qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. -T.: O'zbekiston NMIU, 2018. -508 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoevning 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil, 28 dekabr, 28.12.2018. 17418.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O'zbekiston, 2017. -488 bet.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - T.: O'zbekiston NMIU, 2017. -592 bet.
5. Abdumannotov A.M. Formirovaniya duxovno-nravstvennykh ponyatiy u uchashchixsy nachalnykh klassov na osnove naslediya Alishera Navoi (na primere dastana "Xayrat ul-abror"): Diss... kand. ped. nauk. -T., 2005. -168 s.
6. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan. dok. ...diss. - Buxoro, 2002. - 276 b.
7. Annayev T.A. Hakim a-Termiziy. - T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1998. - 32 b.
8. Axatova D.A. Abdurauf Fitratning ma'rifiy-pedagogik qarashlari: Ped. fan. nomz. ...diss. - T., 199. - 163 b.
9. Axrorova Z.B. Pedagogicheskie vzglyady i prosvetitel'sko-prakticheskoe deyatelnost Maxmudxodjy Bexbudi: Diss... kand. ped. nauk. -T.: 1998. 165 b.
10. Achilov N.A. Al Hakim at Termiziyning ilmiy merosidan pedagogik jarayonda foydalanish. // Mug'allim hem uzliksiz bilimlendirio'. - Nukus. 2019.5-son. - B. 17-20.